



## ICHKI ISHLAR ORGANLARI UCHUN KADRLARNI TANLASH JARAYONINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

**Rayimov Sherzod Toshtemirovich**

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10628371>

### ARTICLE INFO

Received: 30<sup>th</sup> January 2024

Accepted: 06<sup>th</sup> February 2024

Online: 07<sup>th</sup> February 2024

### KEY WORDS

*Kadrlar, kadrlarni tanlash, kadrlarni tanlash tartibi va asoslari, tor ixtisosliklar, tor ixtisosliklar bo'yicha mutaxassislar.*

### ABSTRACT

*Maqolada ichki ishlar organlari uchun nomzodlarni tanlash tartibi va asoslarini belgilovchi qonunchilik hujjatlarini tahlil qilish asosida ularda mavjud bo'lgan ayrim huquqiy bo'shliqlar aniqlangan hamda ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib berilgan.*

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlar samarasi avvalambor yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog'liqdir<sup>1</sup>. Shu bois, shaxsan Prezidentimiz o'zlari ichki ishlar organlariga intellektual salohiyatli, professional kadrlar tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda<sup>2</sup>.

Aytish mumkinki, kadrlarni xizmatga qabul qilish soha taqdirini belgilovchi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash muammolari ichki ishlar organlari safini salohiyatli kadrlar bilan butlash, ularni tarkibini saqlab turish kabi murakkab vazifalarni yuzaga keltirmoqda.

F.V. Liderning fikricha, ichki ishlar organlariga nomzodlarni tanlash quyidagi bir necha yo'nalishdagi kompleks yondashuvni talab etadigan jarayon hisoblanadi: 1) tizimni ongli ravishda o'z kasbiy tanlovini amalga oshirgan xodimlar bilan to'ldirish; 2) ichki ishlar organlarida kasbiy faoliyat olib borish uchun nomzodlarning kasbiy muvofiqligini aniqlash; 3) samarali xizmat olib borish uchun zarur bo'lgan malaka talablarini belgilash; 4) nomzodlarning shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlarini aniqlash; 5) xizmatga nomzodlarni kasbiy tanlash bo'yicha kadrlar bilan ishlash shakllari va usullarini takomillashtirish<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – 2017. – 8 dek.

<sup>2</sup> Bobojonov P.R. Tanqidiy tahlil va ustuvor vazifalar faoliyat samaradorligiga xizmat qiladi // "Yangi O'zbekiston" ijtimoiy-siyosiy gazetasi, 16.02.2021. – № 33.

<sup>3</sup> Лидер Ф.В. Качественный профессиональный отбор граждан – основа кадровой безопасности системы органов внутренних дел // Вестник Удмуртского университета. – 2018. – № 28 (2). – С. 281.



Ko'rinib turibdiki, ichki ishlar organlarida kadrlarni jamlash jarayonida dastlabki bosqich kadrlarni tanlash hisoblanadi. T.S. Jumanovning fikriga ko'ra, *kadrlarni tanlash* deganda – tegishli sohaning xususiyatidan kelib chiqib, kadrlarga bo'lgan ehtiyojga qarab, nomzodlarni tegishli mezonlar asosida biron-bir lavozimga tayinlash uchun tanlash yoki ta'lim muassasalariga o'qish uchun tanlov o'tkazish orqali tanlash tushuniladi<sup>4</sup>.

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasiga ta'lim shakliga nomzodlarni tanlash tartibi va o'qishga qabul qilish qoidalarida ham bahsli masalalar mavjudligini ko'rish mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3216-son qarorining 6-bandi o'ninchi xatboshisida<sup>5</sup> "Akademiyaning bakalavriat dasturi bo'yicha kunduzgi ta'lim shakliga qabul kvotasining 90 foizi bo'yicha qabul faqat idoraviy akademik litseylar, harbiy akademik litseylar bitiruvchilari, ichki ishlar organlari xodimlari, shuningdek, profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilari orasidan amalga oshiriladi" degan qoidaning kiritilganligi bahsli hisoblanadi. Sababi, *birinchidan*, mazkur qoida umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalari bitiruvchilarining konstitutsiyaviy huquqlari muayyan darajada cheklanishiga; *ikkinchidan*, ta'limda tenglik (teng huquqlilik) prinsipi buzilishiga; *uchinchidan*, sifatsiz hamda tizim uchun mos bo'lmagan nomzodlar jamlanishi ehtimolining oshishiga va iqtidorli yoshlarning IIV Akademiyasiga kirish imkoniyatining cheklanishiga sabab bo'ladi.

Tahlil etilayotgan qoidani tizim uchun kadrlar tayyorlashning uch bosqichli maqsadli kadrlar tayyorlash tizimi (Akademik litsey, bakalavriat va magistratura)ning joriy elilishi bilan qaysidir ma'noda izohlash mumkindir. Biroq, yuqorida keltirilgan vajlarni asoslash murakkab bo'lishi tabiiy.

Shu o'rinda aniq raqamlarni keltirib o'tish tahlil qilinayotgan masalaga oydinlik kiritadi. 2023/2024-o'quv yili uchun IIV Akademiyasiga o'qishga topshirgan jami nomzodlarning 62,8 foizini – IIV Akademik litseylari bitiruvchilari, 33,9 foizini – fuqarolik ta'lim muassasalari bitiruvchilari, 1,4 foizini – Temurbeklar maktabi bitiruvchilari, 1,1 foizini – ichki ishlar organlari (amaliyot) xodimlari, 0,5 foizini – profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilari; o'qishga qabul qilinganlarning esa, 88,0 foizini – IIV Akademik litseylari bitiruvchilari, 10,0 foizini – fuqarolik ta'lim muassasalari bitiruvchilari, 1,2 foizini – Temurbeklar maktabi bitiruvchilari, 0,5 foizini – profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilari, 0,3 foizini – ichki ishlar organlari (amaliyot) xodimlari tashkil etgan<sup>6</sup>.

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3216-son qarorining 6-bandi o'ninchi xatboshisini chiqarish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Mazkur normaning chiqarilishi: *birinchidan*, kelgusida yoshlar o'rtasida ichki ishlar organlarida xizmat qilish nufuzi va istagini oshirib, iqtidorli yoshlarni

<sup>4</sup> Jumanov T.S. Ichki ishlar organlarida kadrlar siyosatining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish: yurid. fan. fals. dokt. (PhD) ... diss. – O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – B. 22-23.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3216-son qarori // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/3313218> (murojaat vaqti: 30.01.2024).

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti ma'lumotlari asosida berilmoqda.



xizmatga jalb etish imkoniyating kengayishiga xizmat qiladi; *ikkinchidan*, tizimning munosib kadrlar bilan jamlanishiga sabab bo'ladi.

Hozirda ichki ishlar organlari tizimi uchun tor ixtisosliklar bo'yicha mutaxassislar doirasiga kiruvchi lavozimlarni jamlash borasidagi muammolar ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda tizimda 20 ga yaqin (masalan, IT-bo'yicha mutaxassis, psixolog, iqtisodchi, tibbiyot, aloqa xodimlari va h.k.) bunday turdagi mutaxassislar lavozimlari kiritilgan bo'lib, IIVning ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil davomida respublika bo'yicha 345 ta – tibbiyot xodimi, 257 ta – iqtisodchi, 40 ta – IT-bo'yicha mutaxassis lavozimlari jamlanmay kelgan.

Bunday muammolarning asosiy sabablaridan biri – tor ixtisosliklar bo'yicha o'qish va ish stajining ichki ishlar organlaridagi xizmat stajiga qo'shib hisoblanmasligi bo'lib, mazkur holat pensiya huquqini beruvchi muddatning cho'zilib ketishiga sabab bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida bunday ma'lumotga ega bo'lgan fuqarolarning ichki ishlar organlari tizimida faoliyat olib borish ishtiyoqini susaytiradi.

Shu o'rinda taqqoslab ko'radigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentyabrdagi PQ-4447-son qaroriga<sup>7</sup> 1-ilova bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 18-bandida *"harbiy xizmatchilarga xizmat yili uchun foizli ustamalarining miqdorlarini belgilashda hamda pensiyani hisoblash vaqtida harbiy xizmatdan tashqari davlat xizmatlarining boshqa turlari nazarda tutilgan vazirliklardagi xizmat davri (ish staji) maxsus unvon (martaba darajasi) berilgan kundan boshlab harbiy xizmat muddatiga qo'shib hisoblanishi"* belgilab qo'yilgan.

Mazkur qoida fuqarolarning harbiy xizmatga kirish borasidagi ishtiyoqini oshirishga xizmat qiladi. Fikrimizcha, ichki ishlar organlaridagi xizmatning maxsus davlat xizmati ekanligini, tizimga jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi kechiktirib bo'lmas vazifalar yuklatilganligini hisobga olib, yuqoridagi qoidani ushbu tizimga ham tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Soha mutaxassislari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar natijalari ham fikrimizni tasdiqlashga xizmat qiladi. Jumladan, amaliyot xodimlari bilan o'tkazilgan anketa so'rovida, ularga *"Tor ixtisosliklar bo'yicha mutaxassislarning pensiya huquqini beruvchi xizmat stajini hisoblashda, ularning boshqa vazirlik va idoralarda xizmat qilgan davrini ham hisobga olish lozim, deb hisoblaysizmi?"* degan savol bilan murojaat qilinganda, respondentlarning 86,5 foizi – ha, degan javobni berishgan.

Shu bois fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 50-bandini quyidagi mazmundagi alohida xatboshi bilan to'ldirish lozim bo'ladi:

*"Tor ixtisosliklar bo'yicha mutaxassislarga xizmat yili uchun foizli ustamalarining miqdorlarini belgilashda hamda pensiyani hisoblash vaqtida ichki ishlar organlaridagi xizmatdan tashqari davlat xizmatlarining boshqa turlari nazarda tutilgan vazirliklardagi*

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi PQ-4447-son qarori // Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/4513434> (murojaat vaqti: 30.01.2024).



*xizmat davri (ish staji) maxsus unvon (martaba darajasi) berilgan kundan boshlab ichki ishlar organlaridagi xizmat muddatiga qo'shib hisoblanadi".*

Mazkur takliflarning qonunchilikda o'z aksini topishi ichki ishlar organlari uchun kadrlarni tanlash sifati va samaradorligini oshirishga hamda yoshlar o'rtasida ichki ishlar organlarida xizmat qilish nufuzi va istagini oshirib, iqtidorli yoshlarni xizmatga jalb etish imkoniyating kengayishiga xizmat qiladi.